

**O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.08/28.08.2020.San.121.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

**INATULLAYEV BAXROMJON BOQIJONOVICH**

**FARG'ONA VODIYSI QIRG'IZLARI MADANIYATIDA ETNIK  
MANSUBLIK VA INTEGRATSIYA JARAYONLARI**

**17.00.07 – Madaniyat nazariyasi va tarixi. Madaniyatshunoslik**

**SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**UDK: 008:39(=512.154)(575.12)**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasи**

**Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation**

**Inatullayev Baxromjon Boqijonovich**

Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari madaniyatida etnik mansublik va integratsiya jarayonlari .....	3
--	---

**Инатуллаев Бахромжон Боқижонович**

Этническая принадлежность и процессы интеграции в культуре киргизского народа Ферганской долины .....	21
--	----

**Inatullaev Bakhromjon Bakijonovich**

Ethnicity and integration processes in the culture of the kyrgyz people of the Fergana valley .....	43
--	----

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ
-----------------------------

List of published works .....	47
-------------------------------	----

**O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.08/28.08.2020.San.121.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

**INATULLAYEV BAXROMJON BOQIJONOVICh**

**FARG'ONA VODIYSI QIRG'IZLARI MADANIYATIDA ETNIK  
MANSUBLIK VA INTEGRATSIYA JARAYONLARI**

**17.00.07 – Madaniyat nazariyasi va tarixi. Madaniyatshunoslik**

**SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/San220 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat va san'at madaniyat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.dsni.uz](http://www.dsni.uz)) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lif portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Xolmirzayev Xayitboy Dadaxonovich**  
san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Mavru洛ov Abduxalil Abdulxayevich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Abdurasulov Shoxrux Abdinaimovich**  
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:** **O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.08/28.08.2020.San.121.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil 2-iyun soat 12<sup>00</sup>dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-“A” uy. Tel.: (+99871) 230-28-02; faks: (+99871) 230-28-15; e-mail: [uzdsni@madaniyat.uz](mailto:uzdsni@madaniyat.uz)).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (24 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-“A” uy. Tel.: (+99871) 230-28-58; faks: (+99871) 230-28-15).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 15-may kuni tarqatildi.

(2025-yil 15-maydagi 8 raqamli reyestr bayonnomasi).

**M.T.Tulyaxodjayeva**

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
san'atshunoslik fanlari doktori, professor

**J.A.Mamatqosimov**

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash kotibi,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD), professor

**A.A.Umarov**

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, sotsiologiya  
fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsaфа doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliги va zarurati.** Jahonda yuz berayotgan transformatsion o‘zgarishlar tufayli dunyoning etnik manzarasida madaniy sintez jarayonlari kuzatilmoqda. Dunyo xalqlari ijtimoiy hayotidagi madaniy-ma’naviy, siyosiy o‘zgarishlar va etnomadaniy jarayonlarda multikulturalizm g‘oyalarining yetakchiligi namoyon bo‘lmoqda. Madaniyatshunoslikda multikulturalizm g‘oyalari ko‘p millatli jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va kam sonli etnik birlikning ijtimoiy-siyosiy huquqlari hamda madaniy rivojlanish tendensiyalarini ta’minlashi bilan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon madaniyatshunoslik ilmida kuzatilayotgan madaniy universallashuv jarayoni xususan, akkulturatsiya, madaniy diffuziya hodisalari sababli kam sonli etnik guruhlarning etnik xususiyatlari va etnik an’analarni saqlab qolishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. YUNESKO bosh konferensiyasining 28-sessiyasida qabul qilingan “Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi”da ham millatlararo milliy munosabatlarda barqarorlik masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining kam sonli millatlar bo‘yicha Oliy Komissarligi, Yevropa tahlil markazi va yana ko‘plab xalqaro ilmiy tadqiqot markazlarida millatlararo munosabatlar, milliy va diniy qadriyatlar, bag‘rikenglik masalalariga alohida e’tibor qaratishi bilan kam sonli etnik guruhlar madaniyatida integratsiya jarayonlarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O‘zbekistonda multikulturalizm g‘oyalari asosida nafaqat o‘zbek xalqi, balki turli etnik guruhlar madaniyatini yaxlit holda, tizimli tadqiq etish bo‘yicha ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. “Fanlar akademiyasi institutlari bilan hamkorlikda mamlakatimizda millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish va uyg‘unlashtirishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishni tashkil etish Respublika baynalmilal madaniyat markazining yana bir dolzarb vazifasi, agar O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan har bir milliy madaniy markazning faollari o‘zlarining tarixiy vatanlari bilan madaniy-gumanitar sohadagi munosabatlarni yanada faol rivojlantiradigan bo‘lsa, o‘ylaymanki, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Respublika baynalmilal madaniyat markazi biz uchun muhim bo‘lgan bu masalada katta vazifani bajarishi kerak”<sup>1</sup>. Madaniyatshunoslik ilmida O‘zbekistonda diasporalar etnomadaniyatini etnik mansublik an’analari va integratsiya jarayonlari asosida takomillashtirish vazifalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876сон “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2025-yil 19-martdagi PF-52-son “Umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-noyabrdagi

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Asarlar. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 300.

723-son “Millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik va hamjihatlikni ta’minlash bo‘yicha jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori hamda sohaga oid boshqa me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darjasи.** Mamlakatimizda Farg‘ona vodiysi dagi etnomadaniy jarayonlar va millatlararo madaniy munosabatlarning ilmiy-nazariy masalalari tadqiqotchilar U.S.Abdullayev, A.A.Ashirov, R.S.Ataxanov, B.M.Vaxobov, G.K.Valixonova, S.S.Gubayeva, R.H.Murtazayevalarning tadqiqotlarida yoritilgan<sup>1</sup>.

MDH mamlakatlari tadqiqotchilari S.N.Abashin, A.N.Bernshtam, V.V.Bartold, N.G.Gorbunova, V.V.Radlovlarning tadqiqotlarida “qirg‘iz” etnonimi va u bilan bog‘liq etnotoponimik va etimologik tahliliy ma’lumotlar keltirilgan<sup>2</sup>. V.Ya.Butanayev, Yu.S.Xudyakovlar tadqiqotlarida esa Qadimgi Yenisey qirg‘izlari davlatchiligining millat hayotida nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va etnomadaniy ahamiyati to‘g‘risida ilmiy mushohada yuritiladi<sup>3</sup>. Shuningdek, K.A.Xalmatov, I.S.Eraliyeva va N.S.Eshimbekovalarning ilmiy izlanishlarida Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari ijtimoiy-madaniy hayotining ayrim masalalari tadqiq qilingan<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> Abdullayev U.S. Farg‘ona vodiysida etnoslararo jarayonlar. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2005. – 125 b.; Abdullayev U.S. Farg‘ona vodiysida etnoslararo jarayonlar (XIX–XX asr boshlari): Tar. fan. dok. diss. – Toshkent: O‘zbekiston Pespublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti, 2006. – 224 b.; Abdullayev U.S., Valixonova G.K. Farg‘ona vodiysi aholis: etnik tarkibni shakllanishi va etnomadaniy munosabatlar tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2016. – 205 b.; Ashirov A.A.Etnologiya. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2008. – 176 b.; Ataxanov R.S. Farg‘ona vodiysi qoraqalpoqlarida an‘anaviy va zamonaviy etnointegratsion jarayonlar: Tar. fan. fal. dok. diss. – Termiz: Termiz davlat universiteti, 2021. – 177 b.; Vaxobov B.M. Farg‘ona vodiysida an‘anaviy etnointegratsion jarayonlar: Tar. fan. dok. diss. avtoref. – Termiz: Termiz davlat universiteti, 2023. – 52 b.; Valixonova G.K. Farg‘ona vodiysi uyg‘urlarida an‘anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar: Tar. fan. fal. dok. diss. – Toshkent: O‘zbekiston Pespublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti, 2018. – 178 b.; Губаева С.С. Население Ферганской долины в конце XIX - начале XX в. (этнокультурные процессы). Ташкент: Фан, 1991. – 66 с.; Murtazayeva R.H. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik. – Toshkent: Universitet, 2007. – 184 b.

<sup>2</sup> Абашин С.Н. Население Ферганской долины (к становлению этнографической номенклатуры в конце XIX – начале XX века) // Ферганская долина. Этничность, этнические процессы, этнические конфликты. – Москва. 2004. – № 3. – 38-101 с.; Абашин С.Н. Этнографическое знание и национальное строительство в Средней Азии («проблема сартов» в XIX – начале XXI в.): Автореф. дисс. ...кан. ист. наук. – Москва: Институт этнологии и антропологии имени Н.Н.Миклухо-Маклая Российской академии наук, 2008. – 52 с.; Бартольд В.В. Киргизы. – Фрунзе: Киргизское государственное издательство, 1927. – 57 с.; Бартольд В.В. Сочинение. II-том 1-часть.-Москва: Восточной литературы, 1963. – 1024 с.; Горбунова Н.Г., Бернштам А.Н. Исследователь древних культур Средней Азии // Из истории и археологии древнего Тянь-Шаня. Сборник. – Бишкек: Илим, 1995. – 5-12 с.; Радлов В.В. Образцы народной литературы тюркских племен, живущих в Южной Сибири и Дзунгарской степи. – Санкт-Петербург: Императорской Академии Наук, 1866. – 451 с.

<sup>3</sup> Худяков Ю.С. Древние тюрки и енисейские кыргызы в войнах в ЦА. – Санкт-Петербург: Евразия, 2019. – 320 с.; Буганаев В.Я., Худяков Ю.С. История енисейских киргизов. – Абакан: Издательство Хакасского государственного университета им. Н.Ф. Катанова, 2000. – 272 с.

<sup>4</sup> Халматов К.А.Озбекстанда жашаган кыргыздар: этномаданий процесстер (XX к. – XXI к. башы): Тар. ил. конд. дис. – Бишкек: Кыргыз-Орус Славян университети, 2010. – 153 б.; Эралиева Й.С. Литературное наследие Заира Мамытбекова: Автореф. дисс. ...кан. фил. наук. – Бишкек: Институт литературы и языка имени Ч.Айтматова НАН РК, 2021. – 52 с.; Эшимбекова Н.С. Исторический анализ коммуникативных функций духовной культуры кыргызов: Автореф. дисс. ...кан. ист. наук. – Бишкек: Кыргызский-Российский Славянский университет, 2007. – 52 с.

Xorijlik tadqiqotchilar S.M.Abramzon, Yu.V.Bromley, M.Drompp, A.M.Minasyan, O.Mannoni va T.G.Stefanenkolarining tadqiqotlarida Markaziy Osiyoda millatlararo madaniy munosabatlar hamda unda qirg‘iz etnosining roli bilan bog‘liq ayrim masalalar yoritilgan<sup>1</sup>. Shuningdek, “qirg‘iz” etnonimiga oid ma’lumotlar antik davrga oid tarixiy manbalar, qadimgi grek, va xitoy olimlarining bir qator asarlarida uchraydi.

Yenisey qirg‘izlarining O‘rta Osiyoga migratsiyasi va lingivistikasi qisman tadqiq etilgan. Ammo, Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari etnomadaniyati, ijtimoiy-madaniy turmushida vujudga keluvchi akkulturatsiya hodisasi natijasida ro‘y bergan integratsiya, transformatsiya va madaniy diffuziya jarayonlari esa maxsus tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejali bilan bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq A1-081-raqamli “XX–XXI asr boshlarida o‘zbek xalqi san’atidagi transformatsiya jarayonlari (tarixiy tahlil)” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari madaniyatida etnik mansublik va integratsiya jarayonlarini ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

O‘zbekiston etnik-madaniy muhitida qirg‘izlarning milliy o‘zlikni anglash jarayonini etnik, lingistik, xo‘jalik-madaniy, moddiy madaniyati, urf-odat va marosimlar kontekstida ochib berish;

ko‘chmanchi va o‘troq xalqlarning millatlararo munosabatda akkulturatsiya, integratsiya hamda madaniy diffuzion jarayonlarini ochib berish;

Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari tilining lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil etish;

Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari moddiy madaniyati uy-joy, kiyim-kechak va milliy taomlardagi transformatsiya jarayonlarini ochib berish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Farg‘ona vodiysi qirg‘izlarining etnik mansublik an’analari va madaniy hayotdagi integratsiya jarayonlari belgilangan.

**Tadqiqotning predmetini** Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari etnik mansubligi an’analari, moddiy va nomoddiy madaniyati namunalari, madaniyatlararo munosabatlar mazmuni, milliy identiklikni saqlash mexanizmlari va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda etnomadaniyat va etnik mansublikning retrospektiv, etnogenetik hamda qiyosiy tahlil, dala tadqiqotlari (suhbat, kuzatuv, intervyu) va etnosotsiologik tadqiqot usullaridan foydalanildi.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari moddiy madaniyatiga xos “жакалуу кемсел”, “желек”, “белдемчи”, “элечек”, “тебетей”дан iborat marosim kiyimlari o‘zbek, uyg‘ur hamda qoraqalpoq xalqlari bilan o‘zaro etnomadaniy aloqalarda madaniy

<sup>1</sup> Абрамзон С.М. Киргизы и их этногенетические и историко-культурные связи. – Фрунзе: Кыргызстан, 1991. – 480 с.; Бромлей Ю.В. Очерки теории этноса. – Москва: Наука, 1983. – 412 с.; Бромлей Ю.В. Этнос и этнография. – Москва: Наука, 1973. – 283 с.; Drompp M. The Yenisei Kyrgyz from Early Times to the Mongol Conquest // Yeni Torkiye publications. – Ankara, 2002. – № 1. – 480–488 р.; Mannoni O. Prospero and Coliban. The Psychology of Colonisation. – New York: University of Michigan Press, 1990. – 218 р.; Минасян А.М. Диалектика как логика. – Ростов –на-Дону, 1991. – 124 с.; Стефаненко Т.Г. Этнопсихология. – Москва: Аспект Пресс, 2004. – 320 с.

transformatsiyaga uchrab madaniy universallashuv sharoitida etnik mansubligini saqlab qolganligi dalillangan;

qirg'iz etnik guruhining tushov kesdi (тушоо кесүү), ot mindirish (ат минүү), to'y, aza hamda diniy marosimlarida vujudga kelgan etnointegratsiya jarayonlarida ijtimoiy me'yorlar, etnostereotiplar, urf-odat, an'ana va qadriyatlar periferik imkoniyatiga ko'ra etnoregional jihatlarning ustuvorligi asoslangan;

Farg'ona vodiysi qirg'izlari madaniyatida akkulturatsiya va madaniy integratsiya natijasida yuzaga kelgan diniy sinkretizm, qirg'iz tilining vodiy dialekти, muqim uy-joy qurish an'analarining madaniyatlararo munosabatlarda kommunikativ vazifani bajarib, konsessual yondashuv asosida madaniy ekspressiya va interkulturalizmni shakllantirgani asoslangan;

Farg'ona vodiysi qirg'izlari ijtimoiy amaliyotidagi o'tov (боз үй), "Комуз", "Кылкыяк", "Жыгач ооз комуз", "Чоор" milliy cholg'u asboblari, "Токтогулдун кербези" qahramonlik qo'shig'i, "Келин келгенде", "Жар-жар" va "Өлөн" marosim qo'shiqlari, "Кара-жорго", "Торгоюм" va "Садагаң болуп кетейин" folklor qo'shiqlari, "Toopoo", "Алаачач", "Кара-жорго", "Кыз куумай" folklor raqslari asosida milliy identiklik dinamikasi aniqlangan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Vodiy qirg'izlarining an'anaviy turmush tarzi, moddiy va nomoddiy madaniyati hamda milliy identikligi bilan bog'liq etnografik materiallar asosida qirg'iz milliy madaniy markazi faoliyatini rivojlantirishga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Farg'ona vodiysi qirg'izlari joylashuv geografiyasi, qirg'iz diasporasi bo'yicha to'plangan toponomik faktlar asosida vodiy qirg'izlarining etnik xaritasi yaratilgan.

Akkulturatsiya hodisasi natijasida yuz bergen ijtimoiy-madaniy jarayonda milliy identiklikni saqlash hamda qirg'iz diasporasining lokal madaniyatini rivojlantirish tizimi takomillashtirilgan.

"Xalqaro madaniy aloqalar" nomli darslik nashr etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchhliligi.** Olingen xulosalarning jahon madaniyatshunosligida sinalgan metodlari va nazariy yondashuvlari qo'llanilganligi, etnik jarayonlarni kuzatish natijalariga asoslanganligi, etnik mansublikka doir ijtimoiy so'rov, kuzatuv hamda dala tadqiqotlari natijalariga tayanilganligi va ular asosida ishlab chiqilgan takliflar amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, taklif etilayotlan tavsiyalar Farg'ona vodiysi qirg'izlari madaniyatida etnik mansublik va integratsiya jarayonlarining nazariy asoslari, akkulturatsiya, madaniy integratsiya va transformatsiya hamda madaniy diffuziya hodisalari ro'y berayotgan sharoitda milliy identiklikni saqlash mexanizmlaridan ijtimoiy fanlarni o'qitishda va etnomadaniy tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkinligi belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada o'z yechimini topgan masalalar bo'yicha olingen ma'lumotlar Farg'ona vodiysi etnik xaritasini tuzish, oliy o'quv yurtlari gumanitar sohalarida etnomadaniyat bo'yicha maxsus kursni o'qitishda darslik, o'quv qo'llanma va uslubiy qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Farg‘ona vodiysi qirg‘izlarining etnik mansubligi va madaniyatida integratsiya jarayonlarini o‘rganish bo‘yicha olingan tadqiqot natijalari assosida:

Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari moddiy madaniyatiga xos “жакалуу кемсөл”, “желек”, “белдемчи”, “элечек”, “тебетей”dan iborat marosim kiyimlari o‘zbek, uyg‘ur hamda qoraqalpoq xalqlari bilan o‘zaro etnomadaniy aloqalarda madaniy transformatsiyaga uchrab madaniy universallashuv sharoitida etnik mansubligini saqlab qolganligi dalillanganligiga oid xulosa va takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2024-yil 13-avgustdagи 04-07/3029-son ma’lumotnomasi). Natijada, kam sonli etnik guruhlar, jumladan qirg‘izlarning moddiy madaniy merosini rivojlantirish imkoniyati kengaytirilgan;

qirg‘iz etnik guruhining tushov kesdi (тушоо кесүү), ot mindirish (ат минүү), to‘y, aza hamda diniy marosimlarida vujudga kelgan etnointegratsiya jarayonlarida ijtimoiy me’yorlar, etnostereotiplier, urf-odat, an’ana va qadriyatlar periferik imkoniyatiga ko‘ra etnoregional jihatlarning ustuvorligi asoslanganligiga oid xulosa va takliflardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2023-yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlar dasturining VI yo‘nalishida belgilangan “Millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot tadbirlari, aholi o‘rtasida radikalizm illatini oldini olish” 16-bandи “Mamlakatimizda turli millat va konfessiyalar vakillarining hamjihatligi, toqatliligin ta’minalash borasidagi ijobiy tajribani keng targ‘ib qilish” mavzusida targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 10-avgustdagи 16/48-son dalolatnomasi). Natijada, kam sonli etnik guruhlar, jumladan, qirg‘izlarning nomoddiy madaniy merosini saqlab qolish imkoniyati kengaytirilgan;

Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari madaniyatida akkulturatsiya va madaniy integratsiya natijasida yuzaga kelgan diniy sinkretizm, qirg‘iz tilining vodiy dialekti, muqim uy-joy qurish an’analaring madaniyatlararo munosabatlarda kommunikativ vazifani bajarib, konsessual yondashuv asosida madaniy ekspresiya va interkulturalizmni shakllantirgani asoslanganligiga oid xulosa va takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi etnik siyosati va millatlararo konsepsiyasini yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasining 2024-yil 26-avgustdagи 14-07-1388-son ma’lumotnomasi). Natijada, mamlakatdagi qirg‘iz millatiga mansub aholining komplementar-integrativ lokal madaniyatini yanada rivojlantirish imkoniyati kengaytirilgan;

Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari ijtimoiy amaliyotidagi o‘tov (боз үй), “Комуз”, “Кыл-кыяқ”, “Жыгач ооз комуз”, “Чоор” milliy cholq‘u asboblari, “Токтогулдуң кербези” qahramonlik qo‘shig‘i, “Келин келгенде”, “Жар-жар” va “Өлөн” marosim qo‘shiplari, “Кара-жорго”, “Торгоюм” va “Садагаң болуп кетейин” folklor qo‘shiplari, “Toopoo”, “Алаачаң”, “Кара-жорго”, “Кыз куумай” folklor raqslari asosida milliy identiklik dinamikasi aniqlanganiga oid xulosa va takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi etnik siyosati va millatlararo konsepsiyasini yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston

Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasining 2024-yil 26-avgustdagи 14-07-1388-son ma’lumotnomasi). Natijada, mamlakatdagi qirg‘iz millatiga mansub aholining identikligini saqlash imkoniyati kengaytirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta ilmiy maqola, shundan, 8 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalaniman adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, asosiy matn 135 sahifani tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, muammoning o‘rganilganlik darjasni, maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natjalarning ishonchliligi, nazariy, amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsyaning birinchi bobi “**O‘zbekistonda madaniyatlararo munosabatlar va etnik mansublikning ilmiy-nazariy asoslari**” deb nomlangan. Ushbu bobning “**O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar kontekstida o‘zbek-qirg‘iz madaniy aloqalarining rivojlanish tendensiyalari**” deb nomlangan birinchi paragrafida O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosati, millatlararo munosabatlar kontekstida o‘zbek-qirg‘iz madaniy aloqalari tadqiq va tahlil etilgan. Qadimdan yurtimizda turli qabila va din vakillari bag‘rikenglik tamoyiliga asoslanib, turmush kechirgan. Millatlararo munosabatlarda O‘zbekistonda nafaqat titul etnos, balki respublikada yashovchi kam sonli elat va diasporalarning lokal etnomadaniyatlariga xos xususiyatlar: etnomadaniyat, madaniy meros, milliy qadriyat va an‘analariga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbekiston va Qirg‘iziston davlatlari o‘rtasida 1993-yilda diplomatik aloqalar o‘rnatalgan, shu vaqtadan boshlab, ikki xalq o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni tartibga soluvchi 213 ta hujjat qabul qilingan. 1994-yil 16-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Qirg‘iziston Respublikasi hukumati o‘rtasida madaniyat, fan, ta’lim, turizm va sport sohalarida hamkorlikni rivojlantirish to‘g‘risida bitim imzolandi. 1996-yil 24-dekabrda o‘zbek-qirg‘iz abadiy do‘sligi to‘g‘risidagi shartnomaga imzolandi. Ko‘p millatlik yurtimizda millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagи PF-52-son “Umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘slik aloqalari qo‘mitasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo

munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasi tashkil qilindi. Mazkur qo'mita bugungi kunda mamlakatda madaniyatlararo munosabatda muhim institutsional tuzilma hisoblanib, bu boradagi faoliyatni muvofiqlashtirib boradi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmoniga binoan viloyatlarda "Do'stlik uylari" tashkil etildi<sup>1</sup>. Jumladan, Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarida tashkil etilgan "Do'stlik uylari"da qirg'iz milliy madaniy markazlari ham faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876-son "Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni bilan mamlakatda millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi tasdiqlandi. 30-iyulni yurtimizda istiqomat qilayotgan kam sonli, turli millat vakillari o'rtasida o'zaro hamjihatlik va bag'rikenglik muhitini mustahkamlash maqsadida "Xalqlar do'stligi kuni" etib belgilanishi qonun bilan mustahkamlandi. Bu o'z navbatida mamlakatda millatlararo munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan madaniy tadbirlarni tashkil etish tizimini takomillashtiradi. "O'zbekiston-umumiy uyimiz" shiori bilan do'stlik festivallari tashkil etilib unda turli millat, jumladan, qirg'iz xalqining madaniy meros namunalari namoyish etiladi. Milliy madaniy markazlar hamkor tashkilotlar bilan birgalikda millatlararo munosabatlar sohasida 30 mingdan ortiq turli tadbirlar tashkil etib, 7 millionga yaqin aholining ishtirokiga erishildi<sup>2</sup>.

Birinchi bobning "**Farg'ona vodiysi qirg'izlari madaniyatida etnik mansublikning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan ikkinchi paragrafida Farg'ona vodiysi qirg'izlari etnik mansubligi, qirg'iz etnonimi va etnogenezi tarixiy faktik jihatdan yoritilgan. Jumladan, etnik mansublikning milliy o'zlikni anglash funksiyasi etnomadaniy qadriyatlarni saqlashda namoyon bo'ladi va o'z navbatida, ijtimoiy-madaniy qiziqishlarni himoyalash va rivojlantirish, milliy qadriyatlarni ichki va tashqi ta'sirlardan himoyalashni ta'minlaydi. Milliy o'zlik va etnik mansublikni anglash esa o'z-o'zidan milliy an'ana va qadriyatlarni avloddan-avlodga uzatish, shuningdek, tarixiy va madaniy boyliklarni saqlashda asosiy vazifasini bajaradi. Etnik mansublikni bilish funksiyasi nafaqat avlodlar xotirasini saqlash, balki avlodlar davomiyligida hayotning o'zida ham ishtirok etishida namoyon bo'ladi.

"Etnik mansublik va milliy o'zlikni anglashning o'lchamli shakli etnostereotiplier bo'lib, etnomadaniyatda asosiy masala hisoblanadi. Etnostereotiplier shaxsning ijtimoiylashuvi va madaniylashuvini o'rghanadilar. Etnostereotip bu – ijtimoiy normalarga asoslangan tizimni obrazi yoki boshqa etnik tasavvurlardir. Stereotiplier shaxsning abstrakt tushunchalarga qiziqishlari bo'lib, insonlarning umumiy birlashuvi xarakteridir"<sup>3</sup>. Etnostereotip umumiy etnik aloqada vujudga keladi va tizimlashtirilmagan axborot oqimidan hosil bo'ladi hamda stereotiplier tanlov asosida shakllanadi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son.

<sup>2</sup> Toshev A.B. Yangi O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash. – Toshkent: Tasvir, 2024. – B. 8.

<sup>3</sup> Amirova G.B. Milliy o'z-o'zini anglash milliy o'ziga xoslikni saqlash omili sifatida // Zamonaliviy ta'lim. – 2016. – № 8. – B. 6.

Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari – O‘rta Osiyoning chekka tog‘li vodiylarida yashovchi etnik qirg‘izlar guruhidir. O‘z navbatida, etnomadaniyati, etnik mansublik va hayot tarzi bilan Qirg‘izistonda yashovchi tub qirg‘iz jamoalaridan ajralib turadi, shu jihatni bilan mazkur muammo madaniyatshunoslik fanining alohida mavzusiga aylangan.

Qadimgi qo‘lyozmalarda “qirg‘iz” etnonimi to‘g‘risida turlicha fikrlar mavjud: grekcha – *herkis*, lotincha – *kerkis*, mo‘g‘ulcha – *xirgis*, *khyargis*, arab va fors tillarida – *xirxiz*, *xirxir* tarzida uchraydi. Jumladan, Xitoy manbalarida esa ushbu atamaning yozilishi juda xilma-xildir: Xan davriga oid manbalarda –*szyan-gun*, Tang matnlarida – *syaszyasi*, Yuanda – *sziliszisi* tarzida yozilgan. Hozirgacha “qirg‘iz” etnonimi alohida qabila yoki qabilalar guruhi belgisi sifatida qarab, ushbu atama ko‘hna Oltoy-Yenisey hududida paydo bo‘lgan, degan to‘xtamga kelingan. “Qirg‘iz” etnonimi haqidagi bahsmunozaralar o‘tgan asrning 60-yillarida boshlanib, hali yakunlanmagan.

Miloddan avvalgi 484-425-yillarda grek tarixchisi Gerodotning “Tarix” asari “Melpomene” bo‘limida O‘rta Osiyo hududida istiqomat qilgan aholining nasabnomasida qirg‘izlarni eng qadimgi urug‘ sifatida e’tirof etgan. Strabon “Geografiya” asarida Grek-Baqtriya ellinizmi, miloddan avvalgi IV–I asrlarda yashagan greklar, O‘rta Osiyo aholisining sinkretik madaniyatiga alohida to‘xtalga. Shuningdek, muallif o‘z asarida Amu (Oks) daryosiga quyiluvchi, Sir (Yaksart) daryoning yuqori o‘zani baland, qorli tog‘lardan boshlanishi, ko‘chmanchi-chorvador qirg‘izlar, tuya, qo‘tos, eng uchqur va jangovar otlarni boqqani haqida ma’lumotlar bor<sup>1</sup>.

Yenisey qirg‘izlari tashtik, chaat, tyuxtyat va askiz etnomadaniyatining tashuvchilarini sifatida O‘rta Osiyo xalqlarining etnosiyosi, etnomadaniy va ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutgan. Qadimda etnik guruh, urug‘ va qabilalar o‘rtasida yuzaga kelgan millatlararo madaniy aloqalarda til va yozuv muhim muhim ahamiyat kasb etib, nafaqat savdo-sotiq, balki ijtimoiy-madaniy turmush tarzi hisoblangan xo‘jalik yuritish, diniy marosim, oila va nikoh masalalarida ham yaqin aloqalar yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, til va yozuv mazmun-mohiyat kasb etib, inson-til-tafakkur-madaniyat va dunyoqarashning muhim omilidir.

Etnik mansublik, etnik o‘ziga xoslik – avvalo insonning har qanday etnik guruh, birlikka mansubligini anglashining hissiy-kognitiv jarayonidir.

Xitoy manbalarida Xun imperiyasi qulagandan so‘ng, Bey shi (shimoliy) va Suy shu (Suy) sulolasiga tarixida zikr etilgan. “Milodiy III–V asrlarda g‘arbda Qora dengizdan sharqda Manchjuriyagacha bo‘lgan joyda 44 ta turkiy qabila istiqomat qilgan: uyg‘ur, o‘g‘uz, qipchoq va qirg‘izlar, shular jumlasidandir. Keyinchalik ushbu qabilalar O‘rta Osiyo hududida tarqalgan turkiy tilli millat, xalqlar bilan integratsiya jarayoni ro‘y bergen edi”<sup>2</sup>.

2002-yilgi O‘zbekiston Respublikasi aholisining milliy tarkibida qirg‘izlarning ulushi 0,9 %, ya’ni qirg‘izlar 221,8 mingtani tashkil etgan<sup>3</sup>. Bugungi kunda yurtimiz aholisining deyarli 1,3 % ga yaqinini tashkil etuvchi qirg‘izlarning etnik tarkibi, ularning tarixiy migratsiyasi haqida ilmiy izlanishlar olib borishda ham ushbu ilmiy izchillikka

<sup>1</sup> Самохвалова Н.Е. Парфянская держава в географической картине мира Страбона // Вестник ПСТГУ. – 2011. – Вып. 4 (41). – С. 92.

<sup>2</sup> Xo‘jayev A., Xo‘jayev K. Qadimgi manbalarda xalqimiz o‘tmishi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2022. – B. 15.

<sup>3</sup> Murtazayeva R.H. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik. – Toshkent: Universitet, 2007. – B. 129.

rioya etish talab etiladi. Bugun O‘zbekiston Respublikasining 6 ta hududida qirg‘iz millatiga mansub aholi uyushgan holda istiqomat qiladi.

Dissertatsiya birinchi bobining “**Ko‘chmanchi va o‘troq xalqlarning hayotida akkulturatsiya hodisasi**” deb nomlangan uchinchi paragrafida etnomadaniy tadqiqotlarida akkulturatsiya hodisasi tahlil qilingan. “Akkulturatsiya” atamasi ilk bora 1880-yilda amerikalik etnolog J.Pauell tomonidan taklif qilingan.

Amerikalik etnograf F.Boas va avstriyalik R.Tyurnvald birinchi bo‘lib bu hodisani nazariy jihatdan asoslashga harakat qildilar. Shuningdek, akkulturatsiya hodisasini sotsiolog, psixolog, antropolog olimlar A.Krober, O.Mannoni, P.Sorokin, R.Bils, R.Linton, R.Redfield va M.Xerskovislarning nazariyasidan tadqiqot ishida foydalanilgan. “Akkulturatsiya (lotincha acculturare so‘zidan “k, yondashuv”+cultura “ta’lim, taraqqiyot”) – madaniyatlarning o‘zaro ta’sir qilish jarayoni (madaniy xususiyatlarni almashishi), biror xalq yoki boshqa bir xalq madaniyatini to‘liq yoki qisman idrok etishdir”<sup>1</sup>.

Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari madaniyatida akkulturatsiya hodisasini til va leksika, oshxona madaniyati, me’moriy uslub va yashash tarzi, kiyim-kechak, din va urf-odatlar, san’at misolida kuzatish mumkin. Mintaqada istiqomat qiluvchi qirg‘iz xalqi muloqotda qirg‘iz tili bilan bir qatorda o‘zbek va boshqa yondosh xalqlar tilidan foydalanadi, balki asosiy so‘zlashuv tili bo‘lgan qirg‘iz tili yondosh xalqlarning tili ta’siriga uchragan. Ko‘plab kundalik muloqotda ishlataladigan so‘zlar o‘zbek, rus, qozoq tillaridan kirib kelgan. Masalan, bozor va savdo muhitida o‘zbekcha so‘zlar ko‘proq ishlataladi. Эже (opa), жезде (kuyov, pochcha), айыл (qishloq), коңшу, кошуна (qo‘sni) kabilar qozoq tilidan kirib kelgan so‘zlar hisoblanadi.

Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari kundalik hayotida an’anaviy qirg‘iz taomlari qatorida boshqa xalq taomlari sevib iste’mol qilinganligini tadqiqotlar natijasida aniqlandi. Jumladan, Farg‘ona vodiysida o‘zbek oshxonasingning ta’siri kuzatiladi. Masalan, palov, somsa, shashlik va xasip kabi taomlar qirg‘izlar orasida ham mashhur bo‘lib ketgan.

Farg‘ona vodiysida istiqomat qilgan qirg‘izlarning me’moriy uslub va yashash tarzida ham boshqa xalqlarning o‘ziga xos elementlarini kuzatish mumkin. An’anaviy qirg‘iz “boz-yy”laridan tashqari, vodiya muqim uy-joy qurish an’analari ham keng tarqalgan. Bu esa ko‘chmanchi xalqlar turmush tarziga o‘troq xalqlar ta’sirini ko‘rsatadi. Qirg‘izlarning an’anaviy kiyimlari o‘zgacha uslubga ega bo‘lsa-da, Farg‘ona vodiysida o‘zbek kiyimlarining elementlari kirib kelgan. Xusan, ipak matolar, rang-barang kashtachilik va milliy naqshlar ko‘proq uchraydi. Ayniqsa, ayollar kiyimlarida bunday holat yaqqol ko‘zga tashlanadi. Vodiy qirg‘iz ayollar ni faqat marosim, to‘y va tadbirlar, balki kundalik hayotda ham adres va atlas matodan tikilgan kiyimlardan foydalanayotganliklari hududda olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlandi.

Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari madaniyatida akkulturatsiya hodisasi adaptativ va madaniy almashinuv xarakteri bilan namoyon bo‘ladi.

“**Vodiy qirg‘izlari etnomadaniyati va milliy identiklik dinamikasi**” deb nomlangan ikkinchi bobning birinchi parografi “**Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari**

<sup>1</sup> Куликова Л.В. Межкультурная коммуникация: теоретические и прикладные аспекты на материале русской и немецкой лингвокультур. – Красноярск: РИО КГПУ, 2004. – С. 196.

**etnomadaniyatida milliy identiklik dinamikasi**” deb nomlanib, milliy identiklik dinamikasi, vodiy qirg‘izlari misolida tahlil etildi.

Dunyoda mavjud har qanday madaniyat muayyan xalq yoki millatning muhim hayotiy belgilarini o‘zida ifoda etadi. Jumladan, Farg‘ona vodiysi qirg‘izlarining identikligini ilmiy tadqiq etish uchun O‘rta Osiyoning o‘ziga xos mintaqasida istiqomat qiluvchi ushbu etnosning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini anglash madaniyatshunoslik fanining dolzarb vazifalaridan biridir.

Etnomadaniyat birinchi navbatda etnik xususiyatga ega bo‘lgan, madaniy element va tuzilmalar yig‘indisi sifatida ko‘rinadi. Etnomadaniyatni o‘zaro ta’sir qiluvchi omil sifatida ko‘rib chiqish, o‘zaro ta’sir jarayonida amalga oshiriladigan etnik-madaniy funksiyalarni aniqlash imkonini beradi. Bunday funksiyalarga instrumental (atrof-muhitni yaratish va o‘zgartirish), madaniyatlash (shaxsning o‘z-o‘zini yaratish va o‘zgartirish), normativ (jamoaviy hayotni tashkil etish), ahamiyatli (belgi), kognitiv, kommunikativ funksiyalar kiradi.

Milliy identiklik yoki milliy o‘z-o‘zini anglash, insonning shaxs sifatida o‘ziga xosligining muhim komponentlaridan biri bo‘lib, uning ma’lum bir etnik guruh yoki millatga mansubligi bilan bog‘liqdir. Milliy o‘zlikni anglash – bu “millatni o‘ziga xos an’ana, qadriyat va tillar bilan ifodalangan yaxlit bir butunlik” tuyg‘usidir. Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari urf-odat, an’ana va dunyoqarashini aks ettiruvchi etnomadaniy hayotida san’at yuksak ahamiyat kasb etadi. Ushbu etnomadaniy element mazkur xalq etnomadaniyati va etnik o‘ziga xoslikni muhim ifodasi sifatida madaniy merosining boyligi hamda xilma-xilligini aks ettiradi.

Bu sifat ko‘chmanchi turmush tarziga asoslangan, ijrochilikda alohida qobiliyat, iste’dod talab qilmaydigan, kundalik hayotda ko‘p uchraydigan, ya’ni ommalashgan cholg‘ularga nisabatan aytildi. Jumladan, chanqovuz, cho‘ponlar orasida keng ommalashgan, puflash, ya’ni nafas yordamida chalinadi, ushbu musiqa sozi nafaqat qirg‘izlar, balki chorvador turkiy millatlar orasida keng tarqalgan. “Комуз”, “Кылкыяқ”, “Жыгач ооз комуз”, “Чооп” каби milliy musiqa sozlari ham qirg‘iz xalqining madaniy qadriyatlari, an’ana va etnomadaniyatining aksidir. Ohang, ritm va matn orqali madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘ziga xos tomonlari kuzatilib, saqlanib qoladi. Milliy musiqalarni tinglash va ijro etish o‘z xalqiga daxldorlik tuyg‘usini kuchaytirishga yordam beradi, milliy o‘zlikni mustahkamlaydi. Ohanglar va qo‘sish matnlari hissiy reaksiya tarixiylik, an’anaviylik va milliy o‘zlikni o‘zaro uzviyilagini ta’minlaydi.

“Токтогулдун кербези” qahramonlik qo‘sishig‘i, “Келин келгенде”, “Жар-жар” va “Өлөн” marosim qo‘sishqlari, “Кара-жорго”, “Торгоюм” va “Садагаң болуп кетейин” folklor qo‘sishqlari hamda “Toopoo”, “Алача”, “Кара-жорго”, “Кыз куумай” qirg‘iz xalqining milliy folklor raqslari bo‘lib, vodiy qirg‘izlari to‘y, milliy marosim va bayramlarida ijro etiladi. Ular qirg‘iz xalqining qadim o‘tmishi, turmushidagi jasorati, quvonch va shodligi, kuch-g‘ayrati, mardligi hamda o‘zaro birligini ifodalaydi.

Etnik guruhning turar-joyga bo‘lgan munosabati, uning etnik mansublik, etnomadaniyat va milliy o‘zlikka bo‘lgan munosabatini namoyon etadi. Qadimgi Yenisey qirg‘izlarida chuoraa (chum, ilumu va chorama-dyu) deb nomlangan silindr-konussimon chodir qadimda turar joy vazifasini o‘tagan. Yenisey qirg‘izlarining O‘rta Osiyoga ko‘chib o‘tishi, ularning ijtimoiy-madaniy turmush tarzi, dunyoqarashi va

ma'naviyati ham o'zgarishga yuz tutdi. "Qirg'iz o'tovi (боз үй) etnik madaniyatining eng muhim qismi bo'lib, ular shunchaki uy emas. Ular oila, yer va koinot ramzi bo'lib, tug'ilishdan o'limgacha bo'lgan hayotning barcha bosqichlarini qamrab oladi.

Ikkinci bobning ikkinchi paragrafi "**Milliy urf-odat va an'analar identiklikni anglash omili sifatida**" deb nomlanib, Farg'ona vodiysi qirg'izlariga xos urf-odat va an'analar ko'rsatib berilgan.

Farg'ona vodiysi qirg'izlari milliy an'anasi va madaniyati tarixiy taraqqiyotning murakkab yo'lini bosib o'tdi. Ularning mazmun, xarakterli belgisi va atributlarining shakllanishi turkiy-mo'g'ul etnomadaniy muhiti bilan chambarchas bog'liqlikda sodir bo'lgan. Ko'p holatlarda milliy urf-odat, marosim va an'analar millat o'tmishi bilan bog'liq bo'lib, ularda islom diniga xos an'analari bilan islomgacha bo'lgan diniy e'tiqoddan dalolat beruvchi odat, udum hamda marosimlar yig'indisini uchratish mumkin.

Farg'ona vodiysi qirg'izlari urf-odat, an'ana va marosimlari hayotidagi muhim o'zgarishlarni yengish, tug'ilishdan to o'limgacha bo'lgan tartibni ta'minlashga yordam berdi. Qirg'izlarning ko'chmanchi hayotida bolalarni kasallik (tibbiy xizmat ko'rsatilmagan)dan vafot etish holati ko'p kuzatilgan, shu sababli chaqaloq dunyoga kelganida turli irimlar ham ado etilgan.

Ko'chmanchilar odatiga ko'ra, bolalar yovuz ruhlar va yomon nazarlardan himoyalangan. Bolaning beshigiga yoki kiyimiga turli tumor (амулет)lar osilgan, bu marosimlar sehrli animistik xarakterda bo'lib, barchasi naslni saqlab qolishga qaratilgan. Chaqaloq qulog'iga azon bilan takbir aytishdan maqsad, bola dunyoda birinchi eshitadigan ovoz va so'z bu Allohning muborak ismi bo'lishidir.

Farzandlarga bolalikdan etnomadaniyat, etnik mansublik hamda milliy o'zlik xususiyatini saqlash uchun ertak, topishmoq, afsona va tez aytishlarni o'rgatib boriladi. Bu esa bolalarda notiqlik mahoratini o'stirib, hisob-kitob, ya'ni matematik zakovatini o'stiruvchi harakatli va aqliy qobiliyatini rivojlantiruvchi xalq o'yinlari yordamida tarbiyalanadi. "Ачакей – жумакей, Аксак кемпир бапалак, Мышык – чычкан, Жыгып чапмай, Уч тапан, Ак терек - көк терек, Ак чөлмөк, Качмай топ ва Уйчу" kabi o'yinlar nafaqat jismoniy harakatdan iborat, balki o'tmish an'analari hamda tarixi to'g'risidagi bilimga ham ega bo'lish talab etiladi.

"To'y"lar mazmun va mohiyatiga ko'ra bir necha turga bo'linadi: beshik to'yi, sunnat (сұннат тою) to'yi, qiz ("қыз тою") to'yi va o'g'il ("ұлләт тою") uylantirish kabilardan iborat. S.M.Abramzon "Qirg'izlarning etnogenetik va tarixiy-madaniy aloqalari" nomli fundamental asarida "Manas" dostonidan xalq og'zaki ijodi hamda tarixiy-etnografik manba sifatida foydalandi. Qirg'izlarning qo'shni xalqlar bilan rang-barang etnogenetik va tarixiy-madaniy aloqalarini kuzatishga harakat qilmasdan turib, qirg'izlar hayoti va madaniyatining o'ziga xosligini tushuntirish va izohlash qiyin bo'lar edi.

Ikkinci bobining uchinchi paragrafi "**Farg'ona vodiysi qirg'izlari tilining lingvomadaniy xususiyatlari**" deb nomlanib, lingvomadaniy tahlillar bayon etilgan. Farg'ona vodiysi qirg'izlari tilining lingvomadaniy tahlil qilar ekanmiz, qirg'iz tilida uchraydigan lingvokulturologik birliklar, ya'ni maqol, matal, naql, o'xshashlik, ibora, ramz, metaforalarga murojaat qilamiz. Bu bevosita Farg'ona vodiysi qirg'izlari ijtimoiy hayoti, turmush tarzi va milliy xarakteri bilan bog'liq bo'lgan folklor namunalarida

yaqqol namoyon bo‘ladi. Aholining o‘zaro muloqot tilida ijtimoiy zarurat sabab ularga tez-tez murojaat qiladi.

Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari bilan olib borilgan tadqiqotlar natijasida o‘zaro muloqotda ishlatiladigan bir qator lingvokulturologik birliklar ma’lum bo‘ldi. Tahlillar natijasida bu birliklar millatlar madaniyati nuqtayi nazaridan uch guruh: birinchisi, o‘zbek yoki boshqa yondosh xalq og‘zaki ijodida uchraydigan, mazmunan bir birini takrorlaydigan lingvokulturologik birliklar, ikkinchisi, faqat bir etnos, ya’ni qirg‘izlargagina xos bo‘lgan lingvokulturologik birliklar, uchinchisi esa, bir xalq og‘zaki ijodiga mansub, lekin boshqa millatning milliy xarakteri, turmush tarziga urg‘u beradigan lingvokulturologik birliklarga ajratiladi.

Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari tilida uchraydigan lingvokulturologik birliklar shu xalqning bugungi turmush tarzi bilan bir qatorda qirg‘iz milliy madaniyatiga xos tendensiyalarni ifoda etadi. Lingvomadaniyat turli xil parametrlar (hudud, maqom, jins, yosh) bilan ajralib turadigan madaniy va lingvistik hamjamiyat ichida o‘zgarmas vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, madaniyatning lingvistik konstantalari yoki tushunchalari shakllanadigan va ishlaydigan umumiyligi muhit sifatida qaralishi mumkin.

Madaniyatning asosiy maqsadi shaxsni ma’naviy boyitish vositasi bo‘lishdir. Inson “madaniyat olamiga” sho‘ng‘ib, ma’naviy madaniyatga xos ko‘pgina tillarni o‘zlashtiradi. Madaniyatning milliy xarakteri turli xalqlar tillari va madaniyatlarining o‘zaro aloqasini, ularning o‘zaro uzviy fundamental poydevor – jahon madaniyati, yutuqlariga boyib borishini nazarda tutadi. Butun insoniyatda madaniyat xalqning yaratilishi sifatida milliy va umumiyligi birligidir.

Tilshunoslikda ikki tillilik, bilingvizm jahon aholisining 1/3 qismini tashkil etar ekan, “bilingvizm, ya’ni ikki tillilar – bu ikkala til ham ona tili bo‘lgan odamlardir. Bu shuni anglatadiki, ular kundalik hayotda bir tildan ikkinchi tilga aqliy tarjima qilish shartisiz, ularni bir-birining o‘rnida ishlatishadi. Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari til madaniyatida ham bu hodisa kuzatiladi.

Qirg‘iz tili shimoliy qirg‘iz, janubiy qirg‘iz, talas va farg‘ona-qipchoq tili dialektidan iborat. Hozirgi Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari tili turkiy tillar qipchoq guruhining qirg‘iz-qipchoq kichik guruhiiga kiradi.

Uchinchi bob “**Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari madaniyatida integratsiya va transformatsiya jarayonlari**” deb nomlangan. Uchinchi bobning “**Ijtimoiy-madaniy hayotda integratsiya hodisasi**” deb nomlangan birinchi paragrafida vodiysi qirg‘izlari hayotidagi integratsiya jarayonlari tahlil etilgan. XIX asrda Gerbert Spenser sotsiologiya fanida “integratsiya” atamasini bir-biridan farq qiladigan bo‘lak yoki hodisalarining bir butunga qo‘shilishini yoki dunyo manzarasini bir butunlikda tasavvur etishni aks ettirishi deb ta’rifladi.

